

UOʻK(UDC, УДК): 82.091

SHARQ VA GʻARB EPIK TAFAKKURIDA SHOTA RUSTAVELI

FENOMENI²*Obidjonova Ma'suma Qosimjon qizi**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat**o'zbek tili va adabiyoti universiteti,**Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi dotsenti,**filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**E-mail: obidjonovamasuma001@gmail.com**Orcid ID:0009-0002-0280-8305*

ANNOTATSIYA

KALIT SOʻZLAR

Ushbu maqolada Shota Rustavelining “Yoʻlbars terisini yopingan qahramon” dostoni Sharq va Gʻarb epik tafakkuri kontekstida keng qamrovli tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi asardagi qahramonlar tizimi, poetik struktura, axloqiy-siyosiy gʻoyalar, ramziy belgilar va fantastik unsurlarni oʻrganish orqali Rustaveli fenomenining badiiy, madaniy va falsafiy ahamiyatini yoritishdan iboratdir. Dostonning poetik-falsafiy qatlamlari faqat milliy adabiyot doirasida emas, balki umuminsoniy qadriyatlar kontekstida ham koʻrib chiqilishi zarur degan muammo ilgari suriladi. Shu bois, asar gruzin adabiyotining tarixiy yodgorligi sifatida emas, balki Sharq va Gʻarb madaniy tafakkuri oʻrtasidagi muloqot va almashinuv mahsuli sifatida tahlil etiladi.

Metodologik jihatdan maqolada qiyosiy, strukturaviy-semantik tahlil, lingvopoetik yondashuv va ramziy-falsafiy uslublardan foydalanildi. Sh.Rustavelining poetik uslubi Sharq mumtoz adiblari, xususan, Alisher Navoiy bilan qiyosiy tahlil qilindi va ular oʻrtasidagi badiiy aloqadorlik aniqlandi. Tariel, Avtandil va Neston-Darijon obrazlari turli qadriyatlar tizimining ramzi sifatida koʻrib chiqildi, ularning ruhiy iztiroblari, fidoyilik va muhabbat motivlari Sharq va Gʻarb adabiyotlaridagi umumiy falsafiy kodlar bilan uygʻunlashtirildi. Shu bilan birga, dostonidagi gʻorda yashash manzaralari, sirli hududlar, kosmik tartibning izdan chiqishi va ayol obrazining gʻayrioddiy timsoli kabi fantastik unsurlar chuqur tahlil qilinib, ularning ramziy-falsafiy talqini ochib berildi.

Shota Rustaveli, Sharq va Gʻarb adabiyoti, epik tafakkur, qahramonlar tahlili, axloqiy va siyosiy motivlar, poetik struktura, qadriyatlar tizimi, qiyosiy adabiyotshunoslik, umumbashariy qadriyatlar, ramziy qatlam, fantastik unsurlar, falsafiy talqin.

Received: July 29, 2025**Accepted:** September 14, 2025**Available****online:** November 16, 2025

² For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Obidjonova M. Sharq va gʻarb epik tafakkurida Shota Rustaveli fenomeni.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8) — B. 18-32.

THE PHENOMENON OF SHOTA RUSTAVELI IN EASTERN AND WESTERN EPIC THOUGHT

Obidjonova Masuma Qosimjon kizi

Alisher Navoi Tashkent State University

of Uzbek Language and Literature,

Associate Professor of the

Department of Translation Theory and Practice,

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

E-mail: obidjonovamasuma001@gmail.com

Orcid ID: 0009-0002-0280-8305

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of Shota Rustaveli's *The Knight in the Panther's Skin* in the context of Eastern and Western epic thought. The study aims to reveal the artistic, cultural, and philosophical significance of the Rustaveli phenomenon through the examination of the system of characters, poetic structure, ethical-political ideas, symbolic imagery, and fantastical elements. The research emphasizes that the ideas embodied in the poem should not only be considered within the framework of national literature but also as expressions of universal human values. For this reason, the poem is interpreted not merely as a Georgian literary monument but as the result of intercultural dialogue and exchange between Eastern and Western traditions.

Methodologically, the study employs principles of comparative literature, structural-semantic analysis, lingvopoetic interpretation, and philosophical comparison. Rustaveli's poetic style is examined in comparison with classical Eastern authors such as Nizami and Alisher Navoi, highlighting literary and aesthetic interconnectedness. The characters Tariel, Avtandil, and Nestan-Darejan are analyzed as representations of diverse systems of values, while their inner struggles, devotion, and love are linked to shared philosophical codes of Eastern and Western literatures. In addition, the fantastical dimensions of the poem — Tariel's life in the cave, the symbolism of the panther's skin, depictions of mysterious journeys, disruptions of cosmic order, and the unique role of female characters - are examined as significant elements of its philosophical and symbolic layers.

KEY WORDS

Shota Rustaveli, Eastern and Western literature, epic thought, character analysis, ethical and political motifs, poetic structure, system of values, comparative literature, universal values, symbolic layer, fantastical elements, philosophical interpretation.

ФЕНОМЕН ШОТЫ РУСТАВЕЛИ В КОНТЕКСТЕ ВОСТОЧНОГО И ЗАПАДНОГО ЭПИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Обиджонова Маъсума Косимжон кизи
доктор философии (PhD) по филологическим наукам,
доцент кафедры теории и практики перевода,
Ташкентский государственный университет
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
E-mail: obidjonovamasuma001@gmail.com
Orcid ID: 0009-0002-0280-8305

АННОТАЦИЯ

В статье проводится всесторонний анализ поэмы Шоты Руставели «Витязь в тигровой шкуре» в контексте восточного и западного эпического мышления. Цель исследования заключается в раскрытии художественного, культурного и философского значения феномена Руставели через изучение системы персонажей, поэтической структуры, этико-политических идей, символики и фантастических элементов произведения. Подчеркивается, что идеи, воплощённые в поэме, должны рассматриваться не только в рамках национальной литературы, но и в контексте универсальных человеческих ценностей. Поэтому произведение трактуется не просто как памятник грузинской словесности, но и как результат межкультурного диалога и обмена между Востоком и Западом.

Методологическая основа исследования включает сравнительно-литературоведческий, структурно-семантический анализ, лингвопоэтический подход и философское сопоставление. Поэтический стиль Руставели сопоставляется с творчеством таких классиков литературы Востока, как Низами и Алишер Навои, что позволяет выявить художественные и эстетические связи. Персонажи Таризл, Автандил и Нестан-Дареджан рассматриваются как репрезентанты различных систем ценностей, а их душевные переживания, преданность и любовь соотносятся с общими философскими кодами восточной и западной литературы. Кроме того, фантастическое измерение в поэме (жизнь Таризла в пещере, символика тигровой шкуры, описания таинственных странствий, нарушение космического порядка и особая роль женского персонажа) анализируются как важные элементы её философско-символического уровня.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Шота Руставели, восточная и западная литература, эпическая мысль, анализ персонажей, этические и политические мотивы, поэтическая структура, система ценностей, сравнительное литературоведение, универсальные ценности, символический уровень, фантастические элементы, философская интерпретация.

KIRISH

Sharq va G'arb adabiy tafakkuri o'rtasidagi aloqalarni o'rganish bugungi adabiyotshunoslikning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida madaniyatlarning o'zaro ta'siri, estetik konseptlarning tutashuvi va qadriyatlar tizimining shakllanishi adabiy manbalarni yangicha talqin etishni talab qilmoqda. Bu jarayonda Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan qahramon" dostoni faqat tarixiy yodgorlik emas, balki madaniyatlararo muloqot maydoni sifatida ham tahlil etilishi zarur. Asarning jahon adabiy merosidagi o'rni nafaqat poetik strukturasi yoki qahramonlar tizimi bilan belgilanadi, balki uning ramziy qatlamlari, fantastik unsurlari va falsafiy-axloqiy g'oyalari bilan ham belgilanadi.

Zamonaviy ilmiy-adabiy izlanishlarga ko'ra Shota Rustaveli fenomeni ko'p qirrali tadqiqotni taqozo etadi. Chunki "Yo'lbars terisini yopingan qahramon" milliy o'zlik timsoli bo'lish bilan birga, madaniyatlararo aloqa va qadriyatlar almashinuvi manbai sifatida ham qaraladi. Qahramonlik, sadoqat, muhabbat va insoniylik singari an'anaviy motivlar bilan bir qatorda, doston tarkibida g'orda kechgan iztiroblar, yo'lbars po'stinining ramziyati, sirli hududlar va kosmik tartibning buzilishi kabi fantastik tasvirlar ham muhim o'rin tutadi. Ana shu fantastik qatlamlar asarni ramziy-falsafiy darajada boyitib, uni nafaqat epik, balki falsafiy va umumbashariy fenomen sifatida o'qishga imkon beradi. Bu jihat dostonni gender nazariyasi, psixoanaliz va intertekstual metodlar orqali talqin qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Shota Rustavelining ijodi ko'pincha milliy adabiyot doirasida o'rganilgan, biroq uning poetik fenomenini Sharq va G'arb adabiy maktablari, zamonaviy falsafiy paradigmalari hamda fantastik qatlamlari bilan qiyosiy tahlil qilish orqali yanada kengroq yoritish mumkin. Shu tariqa, maqolaning yangiligi Sh.Rustaveli asarini nafaqat klassik adabiyot yodgorligi, balki madaniyatshunoslik, falsafa va qiyosiy estetika bilan bog'langan global hodisa sifatida talqin qilishda namoyon bo'ladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi "Yo'lbars terisini yopingan qahramon" dostonining poetik, ramziy va falsafiy qatlamlarini, shuningdek, undagi fantastik unsurlarni tahlil qilish hamda uning jahoniy madaniyatdagi o'rnini ko'rsatishdan

iboratdir. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, dostonning poetik struktura va kompozitsiyasini yangicha metodologiyalar asosida tahlil etish; ikkinchidan, qahramonlar obrazini psixoanaliz va gender tadqiqotlari kontekstida o'rganish; uchinchidan, asardagi fantastik unsurlarni ramziy-falsafiy jihatdan sharhlab, ularning umumiy g'oyaviy mazmunini aniqlash; nihoyat, Rustavelining ijodiy uslubini Sharq va G'arb adabiyoti bilan qiyoslab, uni madaniyatlararo aloqa va qadriyatlar almashinuvi fenomeni sifatida talqin etish.

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati "Yo'lbars terisini yopingan qahramon" dostonini nafaqat milliy adabiy meros namunasi sifatida, balki falsafiy ramzlari, fantastik qatlamlari va madaniyatlararo mohiyati bilan jahoniy intellektual merosning ajralmas qismi sifatida anglashga qaratilganida namoyon bo'ladi.

ASOSIY QISM

Mumtoz adabiyot namunalari haqida gap ketganda adabiy meros va adabiy ta'sir masalasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Har bir xalqning yozma madaniyati nafaqat ichki estetik qadriyatlarni aks ettiradi, balki boshqa madaniyatlar bilan o'zaro muloqot, ta'sir va yangilanish jarayonining ham muhim ko'zgusidir. Bu borada mumtoz Sharq va G'arb adabiyotlari o'rtasida yuzaga kelgan motivlar o'xshashligi, qahramonlik, muhabbat, fidoyilik va ruhiy poklanish kabi timsollarning umumiyliqi diqqatga sazovordir. Shu nuqtayi nazardan XII asr gruzin shoiri Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan qahramon" dostoni nafaqat o'z davrining badiiy yutug'i, balki keyingi asrlarda ham G'arb va Sharq adabiyoti rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan betakror asardir. Atoqli adabiyotshunos olim Maqsud Shayxzoda ta'biri bilan aytganda "Qardosh gruzin xalqining eng muazzam shoiri Shota Rustaveli bizning asrimizda jahon kutubxonalarida Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy, Dante, Shekspir, Gyote, Pushkin, Lermontov, Miskevichlar bilan bir safda turishi tasodifiy hamsoyalik emas, albatta! "Vepxis — Tkaosani" va uni yaratgan buyuk shoir nafaqat o'z xalqining, balki butun insoniyatning madaniy taraqqiyotida muhim bosqich bo'lgan ajoyib hodisa hisoblanishi lozimdir" (Shayxzoda M., 1973, 307). Maqsud Shayxzodaning Shota Rustaveli ijodiga oid mulohazalarini qo'llab-quvvatlagan holda, ushbu asarni yanada chuqurroq va ko'p qirrali ilmiy tahlil qilish

zarurligini ta'kidlamoqchimiz. Xususan, Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" ("Vepxis Tkaosani") dostoni o'zining baynalmilal ahamiyati bilan nafaqat gruzin adabiy an'alarida, balki Yaqin Sharq va Yevropa madaniy kontekstida ham muhim fenomenal hodisadir. Asarda ilgari surilgan g'oyalar ijtimoiy tuzilmalar, axloqiy me'yorlar va falsafiy paradigmalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular o'rta asr G'arb va Sharq tafakkurining umumiy madaniy kodlari bilan uyg'unlashgan. Metrik-strukturaviy va semantik tahlillar shuni ko'rsatadiki, asar tarkibida antropologik, axloqiy va falsafiy g'oyalar integratsiyalashgan. Shu bois, "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon"ni jahoniy intellektual merosning bir qismi sifatida o'rganishda etnografik, tarixiy va adabiy manbalarni sinxron tahlil qilish zarur, deb hisoblaymiz. Bunday yondashuv Sh. Rustaveli ijodining madaniy chegarasizligini aniqlashtirishga, shuningdek, uning madaniyatlararo falsafiy va adabiy ta'sir doirasini kengroq ochib berishga xizmat qiladi.

Asarda ilgari surilgan yuksak insoniy g'oyalar, qahramonlik ruhi, muhabbatga sadoqat va do'stlik motivlari zamonaviy adabiyotshunoslik doirasida ham yangi yondashuvlar asosida tahlil qilinishi lozim. O'zbek kitobxoni uchun ushbu asarning jozibasi, avvalo, uning yuksak badiiy saviyasida, obrazlar murakkabligida va insoniy fazilatlar tarannumida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning Maqsud Shayxzoda tomonidan amalga oshirilgan poetik tarjimasi orqali yangi badiiy ruh kasb etganidir. Shayxzodaning tarjimasi faqatgina til evrilishi emas, balki asarning o'zbek adabiy tafakkuriga moslashuvi, uning o'quvchi ongida yangicha ma'nolar kasb etishi bilan qimmatlidir.

Ta'kidlash joizki, Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan qahramon" dostoni o'z davri uchun nafaqat badiiy, balki poetik shakl jihatidan ham yangilik bo'lgan. Asar o'zining qat'iy ritm va qofiya tizimi bilan ajralib turadi. Har bir band to'rtlikdan tashkil topgan bo'lib, "Rustaveli katrenlari" (Rustavelian quatrain) deb ataluvchi o'ziga xos shaklda – 16 bo'g'inli to'rt misrali satrlar (monorim)dan iborat (Rayfield D., 2010, 119). Bu struktura Sharqning ruboiy an'anasi bilan yaqinlik kasb etsa-da, Sh. Rustavelining poetik mahorati uni yangi ifoda vositasiga aylantiradi. Shakl jihatidan Sh. Rustaveli gruzin she'riyatiga G'arb epikasi va Sharq hikmatnamo

poeziyasining elementlarini olib kiradi. Ayniqsa, epitetlar, tashbehlar, ramzlarning tizimli qo'llanilishi uni mumtoz Sharq adabiy uslubidan ajratib turmaydi, balki uyg'unlashtiradi. Xususan, asar muqaddimasida Shota Rustavelining quyidagicha satrlarini uchratish mumkin:

Amirong'a qasidasin bag'ishladi Xoneli.

Abdulmasih shijoatin ulug'ladi Shavteli,

Dilargetni ko'p tarannum qilgandi Tmogveli... (Rustaveli Sh., 1966, 13)

Ushbu mashhur to'rtlikda shoir o'zidan ilgari yashab ijod qilgan uch adib nomini tilga oladi. Ushbu misralarda ular tomonidan kuylangan epik obrazlar sanaladi va ularga nisbatan Rustavelining adabiy pozitsiyasi aniqlanadi. Tarixiy manbalar asosida aniqlanishicha, bu shoirlardan birinchisi - Mose Xoneli bo'lib, u XII asr o'rtalarida yashagan va "Amiran-Darejoni" nomli qahramonlik qissasining muallifi sifatida tanilgan. Ikkinchi shoir - Chaxruq Shavteli, u dostonidagi Abdulmasih obrazining kuychisi sifatida tilga olinadi. Uchinchi nom - Tmogveli, ehtimol "Tmogvali" ya'ni "Tmogalik" deb tushunilishi mumkin bo'lib, bu shoir Dilarget obraziga bag'ishlab ko'plab asarlar yaratgan. To'rtinchi qator esa bevosita Shota Rustavelining o'ziga tegishli bo'lib, u asar qahramoni Tariel haqida "yig'lab-yig'lab kuylagan"ini ta'kidlaydi. Tarielni yig'lab-yig'lab kuyladi Rustaveli. Bu misralar beixtiyor Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidan olingan parchani yodimizga soladi:

Menki talab yo'lida qo'ydim qadam,

Bordur umidimki, chu tutsam qalam,

Yo'ldasa, bu yo'lda Nizomiy yo'lum,

Qo'ldasa, Xusrav bila Jomiy qo'lum. (Navoiy A., 2006, 47)

Shota Rustaveli Xoneli, Shavteli va Tmogveli singari salafklarini nomma-nom tilga olib, ularning qahramonlik dostoni yaratishdagi xizmatlarini e'tirof etadi. O'zi esa bu an'anani davom ettirib, Tariel obrazini kuylaganini bildiradi. Bu bilan u o'z ijodi mustaqil bo'lishiga qaramay, uni tarixiy-adabiy merosning mantiqiy davomchisi sifatida ko'rsatadi. Alisher Navoiy ham, "Xamsa"ni yaratish niyatida, o'zidan ilgari shu yo'ldan o'tgan buyuk salafklariga murojaat qiladi. U Nizomiy

Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy nomlarini tilga olib, ularni o'z yo'lida rahnamolardek tasvirlaydi. Navoiy ularning izidan borishga umid bildiradi va bu orqali adabiyotda shaxsiy da'vordan ko'ra, uzviylik va madaniy merosga hurmat ustuvorligini ko'zda tutadi. Bu ikki matn orasidagi yaqinlik, avvalo, Sharq adabiyotiga xos bo'lgan adabiy-madaniy uzviylik tamoyiliga asoslanadi. Sharqdagi mumtoz adabiyot maktablarida shoir o'z ijodini avvalgi ustozlar an'anasiga tayangan holda boshlab, ular bilan ruhiy va estetik bog'liqlikni ta'minlashga intilgan. Shoirning ijodi nafaqat individual ilhom mahsuli, balki avvalgi adabiy zamin ustida qurilgan madaniy binoning davomiy bir qismi sifatida qaralgan.

Shu bilan birga "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" dostonidagi voqealar mumtoz nasriy an'analar asosida qurilgan: muqaddima, sarguzasht, to'qnashuv, ruhiy sinov va yakuniy g'alaba. Uch asosiy qahramon: Avtandil, Tariel va Neston-Darijon o'zaro bog'langan uchta dramatik yo'nalishni tashkil etadi. Syujet chizig'i o'zida tashqi harakat bilan birga ichki, ruhiy o'zgarishlarni ham qamrab oladi (Nasr, S., 2002, 79). Tarielning g'or ichida yolg'iz yashashi oddiy voqelik emas emas, balki ruhiy izolyatsiyaning poetik voqelanishidir. Bu holat G. Jungning "individuatsiya jarayoni" haqidagi nazariyasini yodga soladi (Jung C., 1968, 68). Unga ko'ra qahramon jamiyatdan ajralgan holda o'z "soyasi" bilan yuzlashadi. Do'stlik motivi dostonida faqat voqeaviy element emas, balki axloqiy-estetik mezondir. Avtandilning Tarielga bo'lgan sadoqati sharq tasavvuf adabiyotidagi "fidoiy murid" obraziga yaqin turadi. Bu motiv G'arb ritsarlik adabiyotidagi "loyal companion" tipologiyasiga mos keladi (Luis K., 1956, 56). Har ikkala holatda ham mazkur obraz o'zga uchun kurashga tayyorlik, fidoyilik va insoniy ideallarning sodiqlik orqali aks etishini bildiradi. Neston-Darijon obrazi mumtoz Sharq adabiyotidagi Layli, Shirin, Zuhro kabi mukammal ayol timsollarining davomi sifatida talqin qilinadi. Ammo ularning aksarida bunday obrazlar "ojiza" bo'lsa, Neston faol inson sifatida syujetda hal qiluvchi rol o'ynaydi. U "ideal ayol" emas, balki iroda va qaror sohibasidir (Gaprindashvili T., 1995, 29). Zamonaviy gender tadqiqotlari kontekstida, Neston Darijon obrazi patriarxal tasvirga muqobil bo'lgan

“mustaqil ayol” arxetipini namoyon qiladi (Batler J., 1990, 63). Bu esa dostonida ayol obrazining oʻrni faqat sevgi obyekti emas, balki ijtimoiy va axloqiy kuch sifatida talqin etilishidan dalolat beradi. Masalan,

Neston dedi: “Men ayolman, ayollarcha oʻylayman,

Ammo bekor qon toʻkishga aslo rozi boʻlmayman.

Shahzodani oʻldir faqat, lashkarini qilma xor,

Taqir yerdan meva unar, Tangri bersa, ey sardor” (Rustaveli Sh. 1966, 217).

Bu satrda Neston-Darijon oʻz tabiatini inkor etmaydi, yaʼni “erkaklarcha qatʼiyat” koʻrsatishga urinmaydi. Aksincha, u ayollikni oʻzining axloqiy va siyosiy qarorlarida asosiy nuqtayi nazar sifatida oladi. Bu pozitsiya taslim boʻlish emas, balki axloqiy nuqtayi nazardan yuksaklik ifodasidir. Klassik gʻarb nasrida koʻp hollarda ayol obrazlari “erkaklar maqomi”ga intilishga intiladi (masalan, “Nibelunglar haqida doston”dagi Bryunxilda, antik yunon afsonalaridagi Atalanta). Neston esa ayollikni axloqiy ustunlik sifatida ifodalaydi va bu mazkur davr adabiyoti uchun yangi yondashuv edi. Qolaversa, bu satrda u axloqiy va siyosiy pozitsiyasini qatʼiy bildiradi: urush vositasida yovuzlik qilmaslik kerak. Boshqacha aytganda, Neston asosiy zulm manbasini, yaʼni shahzodani jazolash kerak, deb hisoblaydi. Lekin oddiy xalqni, askarni jazolashni nooʻrin deb biladi. Yaʼni Neston-Darijon ayrica jazolash (differensial yondashuv) tarafdoridir.

Avtandil va Tarielning sayohatlari doston strukturasinin yadrosini tashkil etadi. Bu safar adabiyotshunos K. Jung tomonidan ilgari surilgan “qahramonning yoʻli” (hero’s journey) deb atalmish psixologik arxetipga mos keladi. Bunday struktura Homerning “*Odisseya*”, Firdavsiyning “*Shohnoma*”, hatto “*Alpomish*” dostonlarida ham mavjud. Har bir sinov qahramonni ruhiy oʻsishga yaqinlashtiradi. Tarielning yoʻlbars terisiga oʻranib, gʻor ichida yashashi – bu sufiylikdagi “uzlatga chekinish” konsepsiyasini eslatadi. Ruhiy uzlat, haqiqatni anglash yoʻlida jismoniy emas, maʼnaviy poklanishdir (Jung K. 1968, 35).

“Yoʻlbars terisini yopingan qahramon” dostoni Sharq va Yevropa adabiy anʼanalari tutashgan nuqtada shakllangan badiiy-falsafiy tizimdir. Asar syujet dinamikasidan tashqari, qahramonlar nutqi, poetik struktura, timsollar va

lingvopoetik detallar orqali o'rta asr kishisining axloqiy, siyosiy va ma'naviy muammolariga javob izlaydi. Har bir qahramon bu matnda mustaqil estetik va ideologik yuklamaga ega bo'lib, ular orasidagi muloqot asarning ichki gnoseologik mexanizmini tashkil etadi. Tariel obrazida odatiy epik jasorat emas, balki sezgi va anglash o'rtasidagi ziddiyat yechimi izlanadi. U g'alaba va yo'qotish, ehtiros va iroda o'rtasidagi murakkab jarayonlarni o'zida mujassamlashtiradi. Avtandil esa oqillik va fidoyilikning timsoli sifatida mantiqiy tafakkur va do'stlik tamoyillarini ilgari suradi. Neston-Darijon obrazi asarga qahramonlik tushunchasiga muqobil axloqiy pozitsiya olib kiradi. U kuch orqali emas, imon, sabr va siyosiy ong orqali ta'sir etuvchi faol shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Dostonda ziddiyatlar shunchaki dramatik qarama-qarshilik emas, balki madaniy qatlamlarning to'qnashuvi sifatida aks etadi. Masalan, arab hukmdori, yoki boshqa yovuz obrazlar real antagonistik kuchdan ko'ra ko'proq aksil qadriyatlar tizimini ifodalaydi. Shu ma'noda, har bir tafsilot: qurol, kiyim, yo'l, maktub, tun, yig'i semantik yuklamaga ega bo'lib, ular timsollar tizimida muhim pozitsiyani egallaydi. Shu tariqa, "Yo'lbars terisini yopingan qahramon" dostoni mumtoz epik an'anani saqlagan holda, uni axloqiy, siyosiy va madaniy mubohasa maydoniga aylantiradi. Asarni nafaqat poetik voqelik sifatida, balki qadriyatlar ustidan olib borilgan tafakkuriy tahlil sifatida o'qish lozim. Bu jihatdan u jahon adabiyot doirasida alohida ilmiy tadqiqotni talab etuvchi kompleks adabiy-falsafiy fenomen sifatida qaralishi kerak.

Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan qahramon" dostoni ko'pincha qahramonlik, muhabbat va sadoqat timsoli sifatida o'rganiladi. Ammo asarda mavjud bo'lgan ayrim voqealar, obrazlar va ramziy tafsilotlar fantastik unsurlar tarzida ham talqin qilinishi mumkin. O'rta asrlarda yozilgan dostonlarda "fantastika" tushunchasi zamonaviy ilmiy-fantastik janrdagi kabi aniq shakllanmagan bo'lsa-da, ular o'z davr odamlari uchun haqiqat va xayol orasidagi chegarani buzuvchi, "g'ayritabiiy" hodisalar sifatida idrok etilgan. Shu jihatdan Rustaveli dostoni ham mifologik, simvolik va fantastik qatlamlarga boydir. Birinchi navbatda, asardagi yovvoyi hayvonlar tasvirini ko'rib chiqamiz. Dostonning ayrim

sahnalarida qahramonlar kuchli hayvonlar bilan, odamiylik chegarasidan tashqaridagi mavjudotlar bilan to'qnashadi. Bu obrazlar oddiy "ertakona mavjudotlar" emas, balki inson ruhiyatidagi salbiy instinktlar, ijtimoiy zulm va axloqiy inqiroz ramzi sifatida qaralishi mumkin. Masalan, Tarielning janglari nafaqat jismoniy kuch sinovi, balki ichki qo'rquv, shubha va iztirob bilan kurashning timsoli sifatida ham talqin qilinadi. Jungning "individuatsiya" konsepsiyasidan kelib chiqib aytganda, qahramonning ajdardhoga qarshi kurashi insonning o'z "soyasi" bilan yuzlashuv jarayonidir. Bu talqin asardagi fantastik elementlarning chuqur falsafiy-psixologik mohiyatini ochib beradi. Tarielning g'orda kechgan hayoti alohida e'tiborga loyiqdir. Dostonda u sevgilisi Neston Darijondan ayrilgach, chuqur iztiroblarga berilib, odamlar jamiyatidan chekinadi. U g'orda yashab, yovvoyi hayvonlarni o'ldiradi va ularning terisiga burkanib yuradi. Bu voqea tashqi ko'rinishda sarguzasht elementiga o'xshab tuyulsa-da, aslida chuqur ramziy mazmunga ega. Yo'lbars terisi tabiatning yovvoyi qudratini bildiradi, Tarielning uni kiyishi esa insonning ichki instinktlar bilan to'qnashuvi va ularni o'zlashtirish jarayonini ifodalaydi. Dostonda Avtandil tilidan aytilgan quyidagi ta'rif so'zlarimiz tasdig'i bo'la oladi:

"U pachaqlab zo'r devlarni o'zi yashar bir g'orda

Shoh qasridan qochqin bir qiz unga kaniz qatorida

Yo'lbars po'stin yopinib u, bu olamni der foniy

Shu sababli mensimaydi g'aznalarni, dunyoni" (Rustaveli Sh. 1966, 101)

Mazkur ta'rif dostonda mavjud fantastik qatlamlarni yanada aniqroq namoyon etadi. G'ordagi hayot manzaralari, yo'lbars terisi ramzidagi qorishqlik, noma'lum qizning timsoli hamda dunyo va boyliklarga nisbatan bepisand munosabat qahramonning ruhiy iztiroblari va falsafiy qarashlari bilan uzviy bog'lanadi. Ushbu parcha nafaqat Tarielning individual transformatsiyasini yoritadi, balki Rustaveli matnida g'ayritabiiy va ramziy unsurlar birikib, asarni oddiy epik voqealardan yuqori darajadagi falsafiy-badiiy fenomen sifatida shakllantirayotganini ham tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, dostonda qahramonlarning uzoq safarlari tasvirida muallif tomonidan yaratilgan gʻayritabiiy manzaralar diqqatga sazovordir. Rustaveli epik voqelikni real geografik makonlar bilan cheklab qoʻymaydi, balki ularni sehrli va sirli muhit orqali kengaytiradi. Buni quyidagi satrlar yorqin dalillaydi:

“Afsunidan dengizlarda koʻtarilgay boʻronlar
Kemalar gʻarq, koʻzlaridan ayrilgay ne insonlar
Toʻlqinlarda tik chopishar xuddi yerda yurgandek
Kunduzni tun qilar, tunni quyosh balqib turgandek”(Rustaveli Sh. 1966, 188).

Mazkur parcha epik voqealarga fantastik ohang bagʻishlaydi. Boʻronning afsun taʼsirida yuzaga kelishi, kemalarning gʻarq boʻlishi va insonlarning nobud boʻlishi tasviri insoniyatning tabiiy va kosmik kuchlar qarshisidagi ojizligini koʻrsatadi. Toʻlqin ustida “yerda yurgandek” chopayotgan qiyofalar esa real mantiqni inkor etuvchi, mutlaq gʻayritabiiy hodisadir. Shuningdek, kunduzning tunga, tunning kunduzga aylanib ketishi tabiat tartibining izdan chiqishini ifodalaydi. Bu kabi tasvirlar dostonning ramziy-fantastik qatlamini yanada kuchaytiradi va qahramonlarning safarlarini oddiy geografik yoʻl emas, balki falsafiy-metafizik tajriba sifatida koʻrsatadi. Masalan, Tarielning gʻorda yolgʻizlikda yashashi, Avtandilning uzoq oʻlkalarga safarlari, Neston-Darijonning asirlikdan ozod boʻlish jarayoni – barchasi insoniyatning bilishga boʻlgan intilishi, nomaʼlumni anglash istagini ifodalaydi. Demak, doston syujeti faqat romantik sarguzasht emas, balki “fantastik kashfiyot” ruhidagi intellektual safar sifatida ham talqin etilishi mumkin.

Uchinchi muhim jihat – dostondagi gʻayritabiiy hodisalar va ramziy belgilar. Masalan, Tarielning yoʻlbars terisini kiyishi oddiy “jasorat belgisi” emas, balki ramziy va fantastik xarakterga ega. Yoʻlbars terisi hayvoniy kuch, tabiatning yovvoyi qudrati va insonning ichki instinktlarini ifodalaydi. Shu bilan birga, qahramonning bu timsol orqali oʻzini namoyon qilishi uni insoniylik va hayvoniylik, ong va instinkt oʻrtasidagi murakkab ziddiyatga qoʻyadi. Zamonaviy oʻquvchi uchun bu obraz “ilmiy-fantastik tajriba”ga oʻxshashdir: inson oʻzining genetik, biologik va psixologik chegaralarini sinovdan oʻtkazmoqda. Shuningdek, dostonda ayol obrazlarining fantastik qiyofasi ham muhim oʻrin tutadi. Neston-Darijon

obrazida klassik “ideal ayol” emas, balki qaror qabul qiluvchi, siyosiy ongli, iroda sohibasi sifatidagi ayol ko‘rinadi. Uning ayrim nutqlari zamonaviy gender tadqiqotlari nuqtayi nazaridan “fantastik inqilobiy qadam” sifatida qaralishi mumkin. Chunki o‘rta asr adabiyotida ayol ko‘pincha passiv sevgi obyekti bo‘lgan bo‘lsa, Rustavelining dostonida u faol qaror qabul qiluvchi, tarixiy jarayonlarga bevosita ta’sir etuvchi shaxsdir. Bu esa o‘z davri uchun yangilik bo‘lib, zamonaviy fantastik adabiyotlarda uchraydigan “mustaqil ayol qahramon” tipologiyasiga yaqinlashadi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Shota Rustavelining “Yo‘lbars terisini yopingan qahramon” dostoni oddiy epik asar doirasidan chiqib, ramziy va fantastik unsurlari bilan keng qamrovli falsafiy-badiiy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Tarielning g‘orda yashashi, yo‘lbars po‘stinining ramziyati, noma’lum hududlar tasviri va kosmik tartibning izdan chiqishi kabi epizodlar asarning nafaqat qahramonlik, balki inson ruhiyatining ichki ziddiyatlarini yorituvchi qatlamlarga ega ekanini ko‘rsatdi. Bunday unsurlar dostonida mavjud bo‘lgan madaniyatlararo muloqot va umuminsoniy qadriyatlarning badiiy ifodasini ham yanada ravshanlashtiradi.

Tadqiqotdan kelib chiqadigan yakuniy xulosa shuki, Rustaveli fenomenini chuqurroq o‘rganish nafaqat gruzin adabiyoti yoki Sharq epik an‘analari doirasida, balki jahon adabiy merosining tarkibiy qismi sifatida olib borilishi lozim. Asardagi fantastik va ramziy motivlar o‘zaro uyg‘unlashib, uni madaniyatlararo integratsiya maydoniga aylantiradi. Shu sababli, dostonni zamonaviy nazariy yondashuvlar asosida qayta o‘qish, uni lingvopoetik, falsafiy va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan keng qamrovli tadqiq qilish dolzarbdir. Bizning-cha, kelgusidagi izlanishlarda dostonidagi fantastik unsurlarni boshqa mumtoz epik asarlar bilan qiyosiy tahlil qilish, xususan, Nizomiy, Navoiy yoki Dante ijodi bilan bog‘liq jihatlarni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, asarni zamonaviy ilmiy-fantastik janr paradigmaları kontekstida o‘rganish, uning bugungi badiiy jarayonga ta’sirini izchil tadqiq etish istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Shuningdek, gender tadqiqotlari va psixologik nazariyalar asosida qahramonlar timsolini tahlil qilish Rustaveli fenomenining yangi qirralarini ochib berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Butler J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. – New York: Routledge, 1990. – P. 190.
2. Gaprindashvili T. The Image of Woman in Georgian Classical Literature. – Tbilisi: Ganatleba, 1995. – P. 256.
3. Gvakharia V. Rustaveli and His Poem. – Tbilisi: TSU Press, 2006. – P. 400.
4. Jung K. G. Archetypes and the Collective Unconscious. – New Jersey: Princeton University Press, 1968. – P. 451.
5. Luis C. S. (1956). The Allegory of Love: A Study in Medieval Tradition. – UK: Oxford University Press, 1956. – P. 378.
6. Nasr S. H. The Garden of Truth: The Vision and Promise of Sufism. – London: HarperOne, 2002. – P. 272.
7. Navoiy A. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'afur G'ulom NMIU, 2006. – B. 389.
8. Rayfield D. The Literature of Georgia: A History. – London: Routledge, 2010. – P. 366.
9. Rustaveli Sh. Yo'lbars terisini yopingan pahlavon. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1966. – B. 556.
10. Shayxzoda M. Asarlar. 6 jildlik (5-jild). – Toshkent: G'afur G'ulom NMIU, 1973. – B. 272.

REFERENCES:

1. Butler, J. (1990). Gender trouble: Feminism and the subversion of identity. New York: Routledge.
2. Gaprindashvili, T. (1995). The image of woman in Georgian classical literature. Tbilisi: Ganatleba.
3. Gvakharia, V. (2006). Rustaveli and his poem. Tbilisi: TSU Press.

4. Jung, C. G. (1968). Archetypes and the collective unconscious. Princeton University Press.
5. Lewis, C. S. (1956). The allegory of love: A study in medieval tradition. Oxford University Press.
6. Nasr, S. H. (2002). The garden of truth: The vision and promise of Sufism. HarperOne.
7. Navoi, A. (2006). Hayrat ul-abror. Tashkent: Gafur Gulom.
8. Rayfield, D. (2010). The literature of Georgia: A history. London: Routledge.
9. Rustaveli, Sh. (1966). The knight in the panther's skin. Tashkent: Badiiy Adabiyot.
10. Shaykhzoda, M. (1973). Works (Vol. 5). Tashkent: Gafur Gulom Publishing House.